

**RAQAMLI JAMIYATDA ISHONCHNING O'RNII: SHAKLLANISHI VA
TARAQQIYOTGA TA'SIRI****Abdullaeva Ziyoda Nabieva**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar kafedrası, dotsent v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17566050>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola doirasida zamonaviy raqamli jamiyatda ishonch fenomenining o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro bog'liqligi muhokama qilinadi. Maqolada shuni ta'kidlash joizki, axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga, ishonch tushunchasi an'anaviy shakldan chiqib, butunlay yangidagi shakl va mexanizmlarni qabul qilmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot, onlayn ijtimoiy muhit hamda sun'iy intellekt asosida amalga oshiriladigan qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishonchning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, yoshlar qatlamidagi raqamli ishonch darajasining o'sishi va bu holatning iqtisodiy o'sish, davlat boshqaruvidagi ochiqlik, ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash tizimlariga ijobiy ta'siri alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ishonch, omillar, raqamli jamiyat, fenomen, ijtimoiy taraqqiyot, xavfsizlik, davlat, axborot, platforma, korxona, shaxs, raqamli transformatsiya, onlayn, iqtisod, siyosat.

**THE ROLE OF THE TRUSTEE IN THE DIGITAL SOCIETY: ITS FORMATION AND
IMPACT ON DEVELOPMENT**

Abstract. This study delves into the intricate nature of trust as a social phenomenon within the contemporary digital landscape, critically examining the key factors that contribute to its formation and its subsequent impact on societal progress. It is worth noting that with the rapid development of information technologies and digital communications, the concept of trust is moving away from its traditional form and is taking on completely new forms and mechanisms.

According to the results of the study, the importance of trust in the digital economy, online social environment, and decision-making processes based on artificial intelligence is incomparable. In particular, taking the example of Uzbekistan, the growth of the level of digital trust among young people and its positive impact on economic growth, openness in public administration, education, and healthcare systems are highlighted.

Keywords: trust, factors, digital society, phenomenon, social development, security, state, information, platform, enterprise, individual, digital transformation, online, economy, politics.

**РОЛЬ ПОПЕЧИТЕЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ: ЕГО
СТАНОВЛЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ**

Аннотация. Настоящее исследование посвящено комплексному анализу феномена доверия в условиях современного цифрового общества. В работе выявляются и детально рассматриваются ключевые факторы, обуславливающие его формирование, а также прослеживается взаимосвязь уровня доверия с динамикой социального развития. Автор акцентирует внимание на том, что стремительное развитие информационных технологий и цифровых коммуникаций приводит к трансформации традиционных моделей доверия, способствуя появлению его новых форм и механизмов функционирования.

Полученные в ходе исследования данные убедительно демонстрируют критическую важность доверия для функционирования цифровой экономики, виртуальной социальной среды и систем поддержки принятия решений, основанных на искусственном

интеллекте. Особое внимание в статье уделено ситуации в Узбекистане: проанализирована положительная динамика уровня цифрового доверия в молодежной среде и его благотворное влияние на экономический рост, повышение прозрачности государственного управления, а также на развитие сфер образования и здравоохранения.

Ключевые слова: цифровое доверие, факторы формирования, информационное общество, социальный капитал, кибербезопасность, государственное управление, цифровизация, виртуальная среда, электронная экономика, общественное развитие.

KIRISH


Raqamlashgan jamiyat bugungi global taraqqiyotning eng muhim bosqichidir. Internet, sun'iy intellekt, blokcheyn va raqamli platformalar insonlararo, iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarni tubdan o'zgartirdi. Bunday sharoitda ishonch fenomeni ijtimoiy tizimning barqaror ishlashi uchun zarur asosiy qadriyatlardan biriga aylandi.

Shaxslar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi raqamli o'zaro aloqalar faqat texnologik xavfsizlikka emas, balki ishonch darajasiga ham tayanadi. Shunday ekan, raqamlashgan muhitda ishonchni qanday omillar shakllantiradi va u ijtimoiy taraqqiyotga qanday ta'sir qiladi — bu zamonaviy ilmiy muhokamaning markazida turadigan savoldir.

ASOSIY QISM

Ishonch ijtimoiy fanlarda shaxslararo munosabatlar, iqtisodiy tranzaksiyalar va siyosiy tizimlarning mustahkamligi bilan chambarchas bog'liq. R. Putnam (2000) ijtimoiy kapital nazariyasida ishonchni jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi asosiy resurs sifatida talqin qiladi. Raqamlashgan jamiyatda esa bu tushuncha yangi ko'rinish — “raqamli ishonch” sifatida namoyon bo'ladi. Bu, asosan:

- Texnologik ishonch (platforma xavfsizligiga ishonish);
- Axborot ishonchi (ma'lumotning haqqoniyligiga ishonish);
- Ijtimoiy ishonch (foydalanuvchilar orasidagi o'zaro ishonch) ko'rinishlarida ifodalanadi.



1-rasm. Raqamli ishonch shakllari

O'zbekistonda 2020–2025 yillarda raqamli ishonchning uch shakli bo'yicha (texnologik, axborot va ijtimoiy ishonch) tendensiyalar grafik tarzda ifodasi keltirilgan.

- Ko'k chiziq – texnologik ishonch, ya'ni platformalar xavfsizligiga bo'lgan ishonchi bildiradi.

- Yashil chiziq – axborot ishonchi, ya’ni ma’lumotning haqqoniyligiga bo’lgan ishonchini bildiradi.
- To‘q sariq chiziq – ijtimoiy ishonch, ya’ni foydalanuvchilar orasidagi o‘zaro ishonchni anglatadi.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, axborot ishonchi yoshlar orasida doimiy yuqori bo‘lib kelmoqda, texnologik ishonch esa 2020 yildan boshlab sekin-asta oshib bormoqda. Ijtimoiy ishonch ham barqaror o‘shish yo‘lida.

Blokcheyn texnologiyasi yoki sun‘iy intellekt asosidagi tizimlarda ishonchning mexanizmi markazlashtirilmagan, ya’ni inson omili emas, algoritmik shaffoflik orqali ta’minlanadi. Bu esa an’anaviy ishonch modelining transformatsiyasiga sabab bo‘lmoqda.

Raqamlashgan jamiyatda ishonch: shakllanish omillari va ijtimoiy ta’siri mavzuda quyida olimlarning ayrim ishlari tahlili keltirilgan.

- Piotr Sztompkaning fikricha, odamlarning bir-biri yoki institutlarga bo‘lgan ishonchi uch omilga bog‘liq: birinchidan, shaxs tomonidan baholangan “ishonchlilik”; ikkinchidan, jamiyat ichidagi ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan asosiy ishonch kayfiyati; uchinchidan esa, jamiyatda mavjud bo‘lgan ishonch madaniyati.

- Sztompka shuningdek, demokratik institutlar — normativ aniqlik, shaffoflik, barqarorlik va hisobdorlik — jamiyatda ishonchni shakllantirish uchun muhim ekanligini ta’kidlaydi.

- Karen S. Cookning fikricha, ishonch nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki ijtimoiy tarmoqlarda va institutlar bilan o‘zaro aloqada ham shakllanadi. U “Trust in Society” asarida bu jarayonlarni batafsil tahlil qilgan.

- Theodore M. Porter ishonchni raqamlar va miqdoriy usullar orqali shakllanishini o‘rganadi.

U “Trust in Numbers” asarida raqamlar yordamida ob’ektivlikka bo‘lgan umid insonlarda ishonch paydo bo‘lishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli transformatsiya va ma’lumotga asoslangan tizimlar odamlar ishonchini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Agar platformalar shaffof va adolatli ishlasa, foydalanuvchilar ularni ishonchli deb qabul qiladi. Shu bilan birga, jamiyatda ishonchning pastligi — onlayn xizmatlar va institutlarga bo‘lgan ishonch sustlashuvi — ijtimoiy hamkorlik va taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Raqamlashgan jamiyatda ishonch barqarorlik, hamkorlik, innovatsiyalarni qabul qilish va ijtimoiy farovonlik bilan bevosita bog‘liq ekanligi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.


NATIJALAR

1-jadval. Raqamli ishonchni shakllantiruvchi asosiy omillar

№	Omil nomi	Izoh
1	Kiberxavfsizlik siyosati	Hukumatlar va kompaniyalar foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qiluvchi qonunlarni joriy etmoqda.
2	Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish	GDPR (Yevropa), CCPA (AQSh) va O‘zbekistonda “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun — asosiy me’yoriy baza.
3	Texnologik ishonchlilik	Tizimlarning nosozliksiz ishlashi, DDoS va fishingdan himoyalanih.
4	Ijtimoiy madaniyat va raqamli savodxonlik	Yoshlar orasida axborot madaniyatining oshishi raqamli ishonchni mustahkamlaydi.


1-jadvalda kiberxavfsizlik siyosati, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, texnologik ishonchlilik va ijtimoiy madaniyat kabi omillar ko'rsatilgan.

Har bir omil raqamli ishonchning turli jihatlariga ta'sir qiladi. Masalan, kiberxavfsizlik siyosati foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Yevropadagi GDPR, AQShdagi CCPA va O'zbekistondagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlar orqali tartibga solinadi. Texnologik ishonchlilik tizimlarning barqaror ishlashi va zararli hujumlardan himoyalalanishni anglatadi. Ijtimoiy madaniyat va raqamli savodxonlik esa, ayniqsa yoshlar orasida, axborot madaniyatining oshishi orqali raqamli ishonchni mustahkamlaydi. Shu tariqa, jadval 2020–2025 yillar oralig'ida turli mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, raqamli ishonchni kuchaytiruvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish uchun xizmat qiladi.



2-rasm. 2020–2025 yillar oralig'idagi global tendensiyalar

Bu 2-rasmida yillar davomida texnologik, axborot va ijtimoiy ishonch darajalarining o'sishini grafik tarzda ko'rsatadi.



3-rasm. Korxonalarning raqamli ishonch ishtiroki indeksi


Bu rasmda turli kompaniyalarning ishtirok indeksini taqqoslab, ularning raqamli jarayonlardagi faollik darajasini ko'rsatadi.

O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda raqamli ishonchning eng faol shakllanuvchi guruhi 16–30 yoshdagilar. Ushbu yosh toifa internet va mobil texnologiyalardan eng ko'p foydalanadi, onlayn to'lovlar, masofaviy ta'lim va ijtimoiy tarmoqlarda faol.

2020–2025-yillar oralig'ida o'zbek yoshlarining raqamli ishonchi 18% ga oshgani kuzatilgan (Digital Uzbekistan ma'lumotlariga ko'ra).

Raqamli ishonch quyidagi ijtimoiy natijalarga olib kelmoqda:

- Iqtisodiy o'sish: onlayn savdo va raqamli xizmatlarning kengayishi.
- Davlat boshqaruvida shaffoflik: korrupsiyani kamaytirish, raqamli audit tizimlari.
- Ta'lim va sog'liqni saqlashda qulaylik: e-learning va e-health platformalariga ishonch ortmoqda.
- Ijtimoiy barqarorlik: raqamli madaniyat va mas'uliyatli onlayn xulqni rivojlantirish.



4-rasm. Raqamli ishonchni ijtimoiyi natijalarga ta'siri

4-rasmda raqamli ishonchning ijtimoiy natijalarga ta'sirini ko'rsatadi. Eng katta ta'sir iqtisodiy o'sishga tegishli bo'lib, undan keyin davlat boshqaruvida shaffoflik, ta'lim va sog'liqni saqlashda qulaylik hamda ijtimoiy barqarorlik joy olgan.

Xulosa

Raqamlashgan jamiyatda ishonch — faqat psixologik holat emas, balki ijtimoiy kapital va taraqqiyot manbaidir. Texnologik va axborot xavfsizligi bilan bir qatorda, raqamli madaniyat va yoshlarning ongli ishtiroki ham asosiy omil sifatida qaralishi lozim. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishonchni oshirish uchun davlat siyosati, texnologik ishonchlilik va ta'lim tizimi o'zaro uyg'unlikda ishlashi kerak.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster. Ijtimoiy kapital va ishonch tushunchasini shakllantiruvchi asosiy manba.
2. Sztompka, P. (1999). Trust: A Sociological Theory. Cambridge: Cambridge University Press. Jamiyatda ishonchning shakllanish omillari va ijtimoiy ahamiyati.
3. Cook, K. S. (2001). Trust in Society. New York: Russell Sage Foundation. Shaxslararo va institutlararo ishonchning ijtimoiy tahlili.
4. Porter, T. M. (1995). Trust in Numbers: The Pursuit of Objectivity in Science and Public Life. Princeton: Princeton University Press. Raqamlar va statistik usullar orqali ishonchni shakllantirish mexanizmi.

5. Mayer, R. C., Davis, J. H., & Schoorman, F. D. (1995). An Integrative Model of Organizational Trust. *Academy of Management Review*, 20(3), 709–734. Tashkilotlarda ishonch mexanizmlari va texnologik ishonchning asoslari.
6. Riege, A., & Lindsay, N. (2006). Knowledge Management in the Digital Era: Trust and Collaboration in Online Communities. *Journal of Knowledge Management*, 10(1), 9–18. Onlayn jamoalar va raqamli ishonch bilan bog'liq ilmiy tahlil.
7. OECD (2020). *Digital Economy Outlook 2020*. Paris: OECD Publishing. Raqamli iqtisodiyot va texnologik ishonch global tendensiyalari.
8. European Union. (2016). *General Data Protection Regulation (GDPR)*. Official Journal of the European Union. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ishonchni oshirishga doir huquqiy baza.
9. Digital Uzbekistan. (2023). *Annual Report on Digital Transformation and Trust*. Tashkent: Ministry of Digital Development. O'zbekistonda raqamli ishonchning rivojlanishi va yoshlar orasidagi tendensiyalar.
10. World Economic Forum. (2021). *Building Digital Trust in the 21st Century*. Geneva: WEF. Global darajada raqamli ishonchni shakllantirish strategiyalari va ijtimoiy ta'siri.